XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 9 - avgust VI-57-94-3-49-K/23 Zarbdor tuman hokimligi

Tumandagi ayrim ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan **Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha nomi takrorlangan 11 ta va 3 ta nomsiz ko‘chalarga** ilovada nomlari keltirilgan ko‘chalarga mahalla fuqarolar yig‘inlari takliflari hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021 yil 4 oktyabrdagi 08-05449-sonli ekspertiza xulosasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, **xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi**

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha nomi takrorlangan 11 ta va 3 ta nomsiz ilovada nomlari keltirilgan ko‘chalarga mahalla fuqarolar yig‘inlari takliflari hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021 yil 4 oktyabrdagi 08-05449-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha nomi takrorlangan 11 ta va 3 ta nomsiz ilovada nomlari keltirilgan ko‘chalarga mahalla fuqarolar yig‘inlari takliflari ma’qullansin.

3. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (T.Kadirov), tuman Statistika bo‘limi (G‘.Turdiboyev), Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tuman bo‘limi (R.Qo‘shboqov), tuman Qurilish bo‘limi (N.Yaxshilikov) davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mazkur qarorga muvofiq tumandagi **nomlangan, qayta nomlangan ko‘chalar** nomlarini belgilangan tartibda statistika hisobotlarida aks ettirish va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rsinlar.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (E.Ahmedov) **qayta nomlangan aholi ko‘chalarga** aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tuman bo‘limi (R.Qo‘shboqov), tuman Qurilish bo‘limi (N.Yaxshilikov)lar birgalikda **qayta nomlangan ko‘chalarga** belgilangan tartibda zamonaviy dizayn asosidagi peshlavhalar va ko‘rsatkich belgilar o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O‘.Sulaymanov), Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tuman bo‘limi (R.Qo‘shboqov) nomlari tasdiqlangan aholi punktlarini belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat reyestri bazasiga kiritilishini ta’minlasin.

7. Tuman Axborot xizmati rahbari (O‘.Sulaymanov), “Zarbdor” gazetasi tahririyati (G‘.Xamzayev) ga ushbu qaror mazmun mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Ergashev) va Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Aralov) tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nurmatov), tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Erjigitov, R.Anqayev) hamda tuman

hokimining maslahatchisi (O‘.Sulaymanov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Z.Ruziyev**

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 9-avgustdagi
VI-57-94-3-49-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tumanida nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalar

(geografik ob’yektlar)

RO‘YXATI

T/R	Geografik ob’yektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’yektning amaldagi nomi	Yangi berilgan nomi
1	Ko‘cha	Zarbdor shaharchasi Oybek mahallasi	Ravotlik	O‘zgarish
2	Ko‘cha	Yangikent qishlog‘i	A.Qodiriy	Favvora
3	Ko‘cha	Yangikent qishlog‘i	Oybek	Yashnaobod
4	Ko‘cha	Yangikent qishlog‘i	Baxmal	Osmonsoy
5	Ko‘cha	Adirobod qishlog‘i	Registon	Anorzor
6	Ko‘cha	Andijon qishlog‘i	Mehnatobod	Po‘lkan Shoir
7	Ko‘cha	Sharq yulduzi shaharchasi	Yangiobod	Quvasoy
8	Ko‘cha	Sharq yulduzi shaharchasi	A.Qahhor	Zargarlik
9	Ko‘cha	Sharq yulduzi shaharchasi	Zulfiya	Dilorom
10	Ko‘cha	Sharq yulduzi shaharchasi	Oq oltin	O‘rikli
11	Ko‘cha	Sharq yulduzi shaharchasi	Navro‘z	Nurota
12	Ko‘cha	Toshkesgan aholi punkti	Nomsiz	Guldasta
13	Ko‘cha	Toshkesgan aholi punkti	Nomsiz	Sharq ziyokori
14	Ko‘cha	Toshkesgan aholi punkti	Nomsiz	Toshloq